

TEXNOLOGIYA FANINING TAKRORLASH-MUSTAHKAMLASH DARSLARINI KROSSVORDLAR YORDAMIDA LOYIHALASH

Bisenov Tanirbergen Tobakabulovich

*Navoiy viloyati Konimex tumani 33-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi texnologiya
fani o‘qituvchisi, Navoiy shahri, O‘zbekiston
e-mail: bisenova.bakit@gmail.com*

Mashhur fransuz faylasufi va yozuvchisi Deni Didro “Hech narsa o‘qimagan hech narsani o‘ylamaydi” degan ekan. Qardosh qozoq xalqining yozuvchisi Shoqan Ualixanovning esa “Xalqning yetuk darajada rivojlanishi uchun eng avvalo ozodlik va bilim kerak” degan naqli so‘zlari bugungi kun bilan hamnafasdek.

Texnologiya fanini o‘qitishni takomillashtirishning ilmiy metodik asoslarini yaratish va unga psixologik nuqtai nazardan yondashish, milliy ruhni singdirish, uzoq yillar davomida to‘plangan pedagogik tajribalardan foydalanish Sharq maktablarining o‘ziga xos yangi qirralarini ochib beradi. Texnologiya fanini o‘rganishda xalqimizdan qolgan bir meros maqol “Ming marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal” naqliga amal qilish bugungi kunda o‘qitish tizimining dasturi bo‘lmog‘i lozim.

Texnologiya fanini o‘qitishda bunday yondashish negizida o‘quvchilarda texnologiya faniga nisbatan mehr, ixtirochilik qobiliyatini shakllantirish, nazariya bilan amaliyotning uyg‘unligiga erishish, yoshlikdanoq o‘quvchilarda kashfiyotlarga ko‘nikmalar hosil qilish maqsadi turadi.

Texnologiya darslarida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishda krossvordning o‘rni o‘zgacha. Ayniqsa, krossvordni takrorlash – mustahkamlash darslarida qo‘llash foydali.

O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda, ularning har xil fanga oid asboblari va jihozlari, terminlari, qonuniyatlarning nomini eslab qolishda krossvordni foydalanish mumkin. Shu bilan birgalikda krossvordni tuzish va yechish davomida o‘quvchilar har xil ilmiy – texnik nashriyotlardan chiqadigan gazeta va

jurnallarni, ma'lumotnomalarni foydalanadi, ya'ni krossvord o'quvchilarning mustaqil izlanish va ish bajarish qobiliyatini orttiradi.

Krossvordni dars jarayonida qo'llaganda hozirgi zamon axborot kommunikatsion texnologiyalaridan (videoprojektor, interaktiv doskalar) foydalanilsa, ham vaqtdan yutiladi, ham texnik vositalardan foydalaniladi.

Takrorlash darsida o'quvchilarga navbati bilan savollar beriladi va mos holda har bir katakchalar to'ldirilib boriladi. Masalan, 7-sinfda "Gazlama" krossvordini yechish jarayonida o'quvchilar kimyoviy tolalarning olinishi, kimyoviy tolalarning xossalari, kimyoviy tolali gazlamalar, kiyim haqida ma'lumot, tikiladigan kiyim uchun gazlama va fason, to'y va bayram kechalari uchun liboslar ansamblini yaratish, qo'lda bajariladigan ishlarning texnik shartlari, merejka usulida tikish bo'yicha ma'lumotlarni bilishi, ularning ma'nosini ocha olishlari kerak. Bunday topshiriq esa o'quvchilarning kimyoviy tolalarning olinishi, kimyoviy tolalarning xossalari, kimyoviy tolali gazlamalar, kiyim haqida ma'lumot, tikiladigan kiyim uchun gazlama va fason, to'y va bayram kechalari uchun liboslar ansamblini yaratishni to'g'ri ajrata olishga, o'z fikrlarini jamlashga o'rgatadi, berilgan savolning javobini esa uzoq vaqt eslab qolish qobiliyati ortadi.

Krossvordni diktant sifatida ham qo'llash mumkin. Bunda dars boshlanguncha doskaga krossvordning panjarasi chizilib, har bir panjara mos holda to'ldiriladi. Darsda esa o'quvchilarga 6-8 minut vaqt ichida (krossvordning hajmiga qaragan holda vaqt ajratiladi) har bir ko'rsatilgan terminning ma'nosini ochish topshiriladi. Bunday ishni "Krossvord-aksincha" dep atash mumkin.

Takrorlash – mustahkamlash darslarida krossvordni o'quvchilarning bilimini baholash uchun ham foydalanilsa yaxshi samara beradi.

Krossvordni uy vazifasi sifatida ham foydalanish mumkin. Katta mavzular va boblarni takrorlaganda o'quvchilarga uyda shu mavzu yoki bob bo'yicha krossvord tayyorlash topshiriladi. Bunday topshiriqni o'quvchilar chin dildan bajarishadi. Kelgusi darsda eng yaxshi hisoblanilgan 1-2 krossvordni darsda yechib, qolganlarini yig'ib olib tekshiriladi va tegishli baholarni qo'yish mumkin. Ammo eng muhimi,

o'quvchilar krossvord tuzishda mustaqil izlanadi, adabiyotlarni o'qiydi, ular bilan ishlashni o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda, krossvordlar o'quvchilarning o'ylash qobiliyati va bilim darajasining o'sishida katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarni topqirlikka, olg'irlikka undaydi. Krossvord bilan ishlash o'quvchilarni iqtidorini orttirib, ularning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu boisdan ham, har bir mavzuni, bobni takrorlagach krossvord bilan ishlashni odat tusiga aylantirgan ma'qul.